

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлиги
Бухоро давлат университети**



**Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик халқаро
илмий форуми: замонавий ёндашувлар ва
истикболлар**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман
материаллари**

ТЎПЛАМИ

Бухоро - 2021

Annotatsiya: Sirojiddin Sayyid ilk she'rlarini yozganidayoq, ustozlari va muhlislari olqishiga sazovor bo'lgan shoir. Negaki, o'z she'rlarida doimo millatning ma'naviy qadriyatlarini ulug'lashga, xalqining dardiyu quvonchlarini, g'am-anduhlariyu armonlarini aks ettiradi. Shu kunga qadar uning "Ruhim xaritasi" "Salqin xarsanglar kaftida", "Sevgi mamlakati", "Asragil" kabi o'ndan ortiq she'riy to'plamlari nashr etilgan. Shoir she'riyatining mavzu ko'lami keng, ularda istiqloq shukhi, mustaqillik tarovati va zamonamiz ruhi ufurib turadi. Ushbu maqolamizda shoirning "So'z yo'li" kitobi tarkibiga kirgan, zamonaviy milliy adabiyotimizda qadimiy nazmiy an'analar qayta tiklangan, go'zal bitiklardan iborat bo'lgan "Yaxshilik eskirmagay" ("Qirq hadis") to'plamini tahlil va talqin etishni niyat qildik. Shoir ushbu to'plamda qirq hadisning poetik ifodasini benihoya jozibali misralarda aks ettirgan. Qolaversa, ushbu to'plam avvalgi "Ko'ngil sohili" she'rlaridagi poetik ma'no, voqelikka faol munosabatni diniy-falsafiy jihatdan davomiyligini ta'minlagan.

Kalit so'zlar: Hadisshunos olimlar, Hadis, hikmatli so'zlar, odob-axloq, ilmiy va diniy ilmlar, shaxs kamoloti, muhaddislar, ta'lim-tarbiya.

Shuni ta'kidlash joizki, muqaddas Qur'oni Karim va muborak hadislariga tayangan holda diniy-ahloqiy g'oyalarni talqin etib, yangi ijodiy tafakkur yaratishga harakat qilish bugungi she'riyatimizning xarakterli xususiyatlaridan biridir. Bunday she'riy hadislar mustaqillik mafkurasini mustahkamlash va xalqimiz ruhiyatini poklashga xizmat qilmoqda. Ushbu uslubda asar yaratish islom olamida yaxshi bir an'anaga aylangan ya'ni Sharq adabiyotida "arba'in" an'anasi mavjud bo'lib, eng sahih hadislardan 40 tasini saralab olib, uning mazmunini bir ruboiyda talqin qilingan. Bunday an'anani utoz Abdurahmon Jomiy o'zining "Chihil hadis"i bilan boshlab bergan. Alisher Navoiy esa "forsiyalar idrok aylagan" qirq hadis mohiyatidan turkiyzabonlarni ham bahramand qilish niyatida ushbu asarni turkiy tilga tarjima qilgan. Bunday uslubda asarlar yaratishga Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning: "Kimki ummatimga dini bilan aloqador bo'lgan qirqta hadis yodlatsa, Alloh taolo uni qiyomat kuni faqihlar va olimlar guruhiga kiritadi"¹ degan hadislar asos bo'lgan. Mazkur hadisi sharifda aytilgan va'dadan umid qilib, ko'pchilik musulmon shoirlarimiz "Arbain"lar yozishgan.

Sirojiddin Sayyid ushbu an'anani davom ettirish niyatida xayrli ishga qo'l uradi. Tasavvuf falsafasini hamma ham yaxshi tushunavermaydi, uni asosan ma'lum mutaxassislargina anglay oladilar. Shu sababdan shoir oddiy xalq tushinishi uchun sof sha'riy ko'rsatmalar aks etgan hadislarini nazmiy talqinlarda beradi.

Shoir to'plamni o'ziga xos munajat bilan bo'g'lab, ushbu xayrli ishi uchun Allohdan madad so'raydi:

Dunyoda eng oliy So'z o'zingdirlsan,
O'zing bir gap solding balki dilimga.

¹Imom Muhiddin Zakariy ibn Sharaf Navaviy. Qirq hadis. "Sharq" nashriyoti. T. 2018, 4-bet

Sattorova Sitora, Zaripova Sohiba. THE ANALYSIS OF METAPHORS IN "JANE EYRE" BY CHARLOTTE BRONTE	388
Ubaydullayeva Feruza. APPRECIATING MOTHER TONGUE IN ALPHONSE DAUDET'S STORY	390
Bakayeva Muhabbat, Radjabova Madina. ROY KESEYNING "KUTISH NIKOYASINING O'ZBEKCHA TARJIMASIDA ZAMON VA MAKON IFODASI..."394	
Каххорова Гулрух. ЮКЛАМАЛАРНИНГ ТАРЖИМА ЛУФАТЛАРИДА БЕРИЛИШИ.....	399
Nodira Rozikovna Kurbonova. ANALYSIS OF SETTING IN "EMMA" BY JANE AUSTEN	403
Qudratova Muborak. SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA ARBAIN AN'ANASI	406
Nasima Saidburxonovna Qodirova. ЯНГИ ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ИБРОҲИМ ҲАҚҚУЛОВ ТАҲЛИЛИДА.....	409
Очилов Нодирбек. Оскар Уайльднинг "Дориан Грей сурати" ("The Picture of Dorian Gray") асарида эстетик оқим тамойиллари инъикоси	413
Хазраткулиён Дилшоди Фарходзот. SAMARQAND ADABIY MUHITIDA TOJIK YOSH AVLOD SHE'RIYATINING RIVOJLANISHI.....	417
Улуғбек Очилов. Теодор Драйзернинг "Бахтиқаро Керри" асаридаги такрорлар таснифи ва уларнинг матнда бажарган вазифалари	419
Sh.D. Xolova. A.NAVOIY G'AZALLARINING FRANSUZ TILIDAGI TARJIMASIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR IFODASI.....	422
Зоирова Малика. ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМАТИКА В СОВРЕМЕННОЙ ПРОЗЕ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ М.БУТОВА «СВОБОДА» И М.ПАЛЕЙ «ЕВГЕША И АННУШКА»)	425
Тагоева Ферузабону. СПЕЦИФИКА ПОСТМОДЕРНИЗМА В РОМАНЕ ВИКТОРА ПЕЛЕВИНА «ПОКОЛЕНИЕ П» («GENERATION П»)	431
Сафарова Ҳилола Охунжоновна.ГУЛЛАРИНГНИ АЙЛАДИ ЧЎП ҚАРҒА, БОЙҚУШ, ЗОҒ, ТИЛИМ..."	334
Kasimova Rano Rakhmatulloevna, Ziyadullayeva Aziza Akmalovna. PROFESSIONAL SKILLS AND PSYCHOLOGY OF A TRANSLATOR.....	438
Tashpulatova Visola Ismatullaevna. Domestication and foreignization in translation.....	441
Махмудова Робиябону Фуркатовна. ПИСАТЕЛЬ, ПОСПЕВШИЙ БОЛЬ НАРОДА.....	444
Ikramova Aziza Aminovna Davranova Gulbahor Numondjonovna.INGLIZ ADABIYOTIDA YUJIN O'NIL VA UNING DRAMA YOZISH MAHORATI.....	448
Islamova Dinara Azamatovna, Saydazzamova Chamangul Olimjon qizi.Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi maqollarning leksik-semantik xususiyatlari.....	451
Sulaymonova Dilnoz Hamzayevna. INGLIZ ROMANTIZM ADABIYOTIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	453
Кодыров А.А. Нигматова Л.Х. ТИПЫ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИХ	

7. Rajabova M. B. EXPRESSION OF IMAGES RELATED TO NATIONAL TRADITIONS IN A. NAVOI'S WORK //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 5. – C. 141-146.
8. Rajabova M. B. EXPRESSION OF IMAGES RELATED TO NATIONAL TRADITIONS IN A. NAVOI'S WORK //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 5. – C. 141-146.
9. Baqoevna R. M. Interpretation Of Navruz In Navoi's Work //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 16-23.
10. EŞONKULOV H. ALİ ŞİİR NEVAÎ GAZALLERİNDEKİ SIR TUTMAKLA İLGİLİ DÜŞÜNCELERİN İRFANİ ANLAMLARI HUSUSUNDA //Electronic Turkish Studies. – 2018. – T. 13. – №. 28.
11. EŞONKULOV H. ALİ ŞİİR NEVAÎ'NİN MAHBUBU'L-KULUB ESERİ VE ŞAİRİN AŞIKÂNE GAZELLERİNDE ÂŞK KONUSU //Electronic Turkish Studies. – 2018. – T. 13. – №. 20.
12. Уракова Н. Стиль писателя в современных узбекских поэмах //International scientific review. – 2019. – №. 1 (41).
13. Davronova S. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //World science. – 2016. – T. 4. – №. 5 (9).
14. Nurullaeva S. M., Uraeva D. S. Metaphorization of the “dragon” image in Uzbek classic poetry //World Science: Problems and Innovations. – 2020. – C. 119-121.
15. Darmon U., Rano R., Dilshod R. The Stylization of Prose Tales in Uzbek Children's Literature //Religación. – T. 4. – C. 170-174.
16. Kadirova N. S. CRITICAL STYLE AND GENRE DIVERSITY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – S. 428-433.
17. Saidburhonovna K. N. Literary And Educational Conversation, Dedicated Babur //JournalNX. – S. 102-105.

ЯНГИ ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ИБРОХИМ ҲАҚҚУЛОВ ТАҲЛИЛИДА

**Nasima Saidburxonovna Qodirova,
Tayanch doktorant, BuxDU**

Кириш. XX асрнинг бошларида ўзбек ёзувчилари, адабиётшунос олимлари адабий жараёни кузатиб, у ва унинг яратувчилари ҳақида турли жанрларда ранг-баранг ракурсларда илмий-танқидий асарлар ярата бошладилар, улар жонкуярлик билан ҳам мумтоз адабиёт, ҳам янги ўзбек адабиёти, ҳам халқ оғзаки ижоди масалалари билан шуғулланиб, кўзга кўринарли тадқиқотлар яратдилар. Иброҳим Ҳаққул ҳам ўз замондошлари сингари устозлар анъанасини давом эттирган ҳолда адабий жараёни ҳам кузатиб борди. Янги ўзбек адабиётининг жонкуяр тадқиқотчиси ва кузатувчиси сифатида кўплаб тадқиқотларни амалга оширди. Унинг янги ўзбек адабиётга муносабати қуйидаги йўналишларда намоён бўлади:

1. Маълум бир ижодкор шахсига муносабат.
2. Адабий матнга муносабат.
3. Адабий матн таҳлилига муносабат.

Hargiz zalolatga giriftor o'lmas.
 Ezgu ilmlarni o'rgatgan zotlar
 Ikki dunyoda ham aslo xor bo'lmas.
 Yaratgan olamning gardishlarini
 Goh qiyosh, goh yulduz, oyda keltirgay.
 Shunday insonlarning kamtarin ilmi
 Vatanga qanchalar foyda keltirgay.
 Farzandlar shul sabab topgaylar kamol,
 Yurt shunday zotlarga iftixor aytar.
Gunohlarin so'rab dengizlardagi
Baliqlar ham hatto istig'for aytar.

Imom Suyutiy rivoyat qiladilar: Payg'ambar s.a.v. marhamat qiladilar: "Olimga yerdagi va osmondagi barcha narsalar istig'for aytadi"¹ Yerdagi jonzotlar va osmonlardagi maloikalar istig'for aytib turuvchi kishilar maqomidan ziyoda maqom bormi?! Shoirning yana bir she'ri "Ilm" deb nomlanib, "Tangridan foydali ilmni so'ranglar, foydasiz ilmdan esa chetlashinglar" hadisi to'rt misrada sharhlangan. Ilmi o'rganuvchilar ham, o'rgatuvchilar ham hadislarda mo'tabar kishilar qatorida ulug'lanadi. Sirojiddin Sayyid hadislarning ma'no qamroviga asoslanib, ularni turli xil misralarda she'riy sharhlaydi. Ilm o'rgatuvchilar haqidagi hadisni o'n ikki, foydali ilm haqidagi hadisni esa to'rt misrada xilma-xil tashbehlar orqali g'oya ta'sirchanligini ta'minlay oladi. Ikkala she'rda ham ilmning dunyodagi samarasi va oxiratdagi mevasi undan-da xayrli va abadiy ekanligi bayon qilinadi.

Shoirning "Qirq hadis" turkumidagi she'rlari uchun asos bo'lgan har bir hadisni aniq va ishonchli manbalardan topishimiz mumkinligi, she'rlarining ilmiy va ma'rifiy qimmatini yanada oshiradi. Ijodkor qirq hadisga asoslangan she'rlarida jamiyatning har jabhasiga murojaat qiladi. Ularining har birida hayotiy haqiqat va xulosalarini satrlarga ko'chiradi va so'nggida o'z fikrlarini hadis orqali asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. "Sharq" nashriyoti. T.2018, 87-bet
2. Qirq hadis. Orifulloh domla Muhammadiy Solihiy o'g'li. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.2018, 13-bet.
3. Arbain hadis. Imom an-navaviy. "Sharq" nashriyoti. T.2018, 56-bet
4. Imom Muhiddin Zakariy ibn Sharaf Navaviy. Qirq hadis. "Sharq" nashriyoti. T.2018, 4-bet
5. Amonova Z. K. et al. MANSUR HALLAJ AND HIS IDEAS IN AHMAD YASSAVI'S WORKS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 964-967.
6. Amonova Z. CONFLICT INTERPRETATION IN CLASSICAL LITERATURE //Конференции. – 2020.

¹Qirq hadis. Orifulloh domla Muhammadiy Solihiy o'g'li. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.2018, 13-bet.

Xudoyim, qirq eshik ochilmoqdadir,
Xudoyim, yorug' qil so'zni tilimga.

Ushbu to'plamni o'rganar ekanmiz, unda asosan Islom ahloqiga oid hadislar jamlanganini ko'ramiz. Ularning ko'pchiligi sah'hi va mashhur hadislar, ularning tarkibida to'qima hadislar uchramaydi.

Shoir birinchi navbatda "Zamondan koyinmanglar, zero zamonning egasi Ollohdir"¹ hadisini keltiradi. Ushbu hadisko'pchilik muhadislarimizning kitoblarida keltirilgan. Jumladan, Abu Zar-Jundub ibn Juqoda (r.a) va Abu Abdurahmon Muoz ibn Jabal (r.a)dan: Rasululloh s.a.v. dedilar: Qayerda, qaysi zamonda, qay holatda bo'lsang ham Allohdan taqvo qil!, boshqa bir hadisda "Zamondan nolimang, zamonning egasi Ollohdir"² deyiladi.

Sirojiddin Sayyid ushbu muborak hadisni xudo bergan iste'dodi orqali jamiyat ahliga, yoshlar ongiga she'riy satrlari bilan chuqurroq yetkazib berishga harakat qiladi:

Olloh sizga bergan oy va yil uchun
Arzir har lahzaning naqshi bo'lsangiz.
Azaldan yomonga yomondir zamon,
Zamon yaxshi erur – yaxshi bo'lsangiz.
Har kimga dildagi niyati yo'ldosh,
Ezgu maqsadlari bir umr yordir.

**Zamondan hech qachon koyinmangizkim,
Zamonning egasi Parvardigordir.**³

Insoniylik haqidagi qutlug' tushunchalar va umr mohiyatini aks ettirib turgan bu satrlar o'quvchini o'ziga sehlab, tortib turadi. Chunki uning satrlarida ona xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbati bor. She'r sakkiz misradan iborat bo'lib, olti misrada shoir o'zining hayotiy haqiqatlari bilan xalqiga murojaat qilib, so'nggi ikki misrada o'z fikrini hadis orqali asoslaydi. She'rdagi hech qaysi so'z shunchaki aytilmagan. Jumladan "Har kimga dildagi niyati yo'ldosh, Ezgu maqsadlari bir umr yordir" satrlari ham hadisi sharifga borib taqaladi. Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Albatta amallar niyatlarga bog'liqdir. Albatta, har bir kishining niyat qilgan narsasi bo'ladi."⁴ A-b tarzida qofiyalanib, o'ziga xos ohangni yuzaga keltirgan, shakl ixchamligi va g'oyaning ko'lamdorligi o'quvchini maftun etmay qo'ymaydi.

Shoir keyingi she'rini ilm ahliga bag'ishlab, "Mo'tabar zotlar" deb nomlaydi va quyidagi hadisni albatta she'riy shaklda maromiga yetkazib sharhlaydi: "Foydali ilmlarni o'rgatuvchi odamning gunohi kechirilishini so'rab, har bir narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham istig'for aytadilar"⁵

Ilmu ma'rifatli elning iqboli

¹Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. "Sharq" nashriyoti. T.2018, 86-bet

²Arbain hadis. Imom an-navaviy. "Sharq" nashriyoti. T.2018, 56-bet

³Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. "Sharq" nashriyoti. T.2018, 87-bet

⁴Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islomning madori bo'lgan hadislar. "HILOL-NASHR" T. 2019, 27-bet

⁵Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. "Sharq" nashriyoti. T.2018, 87-bet